
Sayyor sud o'tkazildi

Jinoyat ishlari bo'yicha Rishton tuman sudi tomonidan 2022 yil 6 iyun kuni Rishton tuman Tibbiyot texnikumi binosida sayyor sud majlisida Rishton tumani IIB boshlig'ining Rishton tumani IIO Probatsiya guruhida ruyxatda turib jazo muddatini o'tayotgan 11 nafar maxkumlarni JKning 73-moddasiga asosan jazodan muddatidan ilgari shartli ozod qilish haqidagi va 2 nafar mahkumni tayinlangan jazoni og'irroq turiga almashtirish to'g'risidagi taqdimnomalari ko'rib chiqilib, 11 nafar mahkum jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilindi va 2 nafar mahkum belgilangan jazoni o'tashdan qasddan bo'yin tovlaganligi sababli og'irroq jazo turiga almashtirildi. Shuningdek, sayyor sud majlisidan so'ng jinoyat ishlari bo'yicha Rishton tuman sudi tomonidan chiqarilgan va qonuniy kuchga kirgan sud qarorlar xamda xususiy ajrimlari muhokama qilindi. Bundan tashqari, qonunchilikka kiritilgan so'nggi o'zgartirish va qo'shimchalarning mazmun-mohiyati va ahamiyatini aholi va jamoatchilikka yetkazilib, jinoyatchilikka qarshi kurash va huquqbuzarliklarni barvaqt oldini olish borasida qilinishi lozim bo'lgan vazifalar belgilab olindi.

2022-06-10 13:01:46